

## NIZOMIYNING “MAXZAN UL-ASROR” DOSTONI NAZIRALARI VA ULARNING O’RGANILISHI

**Xo‘rozov Eldor Kamolovich**

Payariq tumani 84-umumuta’lim maktabining  
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

[eldorxorozov0@gmail.com](mailto:eldorxorozov0@gmail.com)

**ANNOTATSIYA:** Xamsanavislik Sharq adabiyotining eng go‘zal va boy ananalaridan biridir. Uning natijasida insoniyat tomonidan yaratilgan ma’naviy meros xazinasi ko‘plab nodir durdonalarga ega bo‘ldi. Shu bilan birga buyuk mutafakkir so‘z ustalari tomonidan yaratilgan masnaviyalar Sharq xalqlari madaniyati, turmush tarzi va ma’naviy qiyofasining shakllanishida sezilarli tasir ko‘rsatdi. Mazkur jarayonda turkiyzabon adabiyot vakillari ham munosib o‘ringa ega ekanligi sir emas. Nizomiy Ganjaviy ananalariga u yoki bu darajada ergashish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan Qutb Xorazmiy, Mavlono Haydar (Xorazmiy), Poshshoxoja va ayniqsa, Alisher Navoiy kabi o‘zbek mumtoz adabiyoti vakillarining xamsa sujetlari asosida yaratgan beba ho asarlari uzoq asrlar davomida axloqiy-manaviy kamolot yo‘lida xizmat qilib kelmoqda.

**KALIT SO‘ZLAR:** doston, nazira, anana, sujet, mutafakkir, navoiyshunoslik, tahlil.

**KIRISH.** Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” hamda Xojaning “Maqsad ultavtor” dostonlarini qiyosan o‘rganish uchun dastlab ularning yaratilisida asos bo‘lgan adabiy an’ana haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lish lozim. Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” dostoni va unga nazira bitish an’anasi jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida keng yoritilgan. Biz bitiruv malakaviy ishimizning dastlabki bobida turkey adabiyotda mazkur dostoniga nazira bitish an’anasi haqidagi ilmiy ma’lumotlar va qarashlarni umumlashtirish va ba holi qudrat to‘ldirishni lozim topdik.

Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” dostonining turkiy tildagi ilk nazirasi Haydar Xorazmiyning Sulton Iskandarga bag‘ishlab 1409-yilda yozilgan «Maxzan ul-asror» dostonidir. Doston yuzasidan A.Abdug‘afurov, B.Valixo‘jaev, E.Rustamov, J.Sharipov, A.Hayitmetov singari bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borishdi. Filologiya fanlari doktori E.Rustamov o‘zining doktorlik dissertatsiyasi hamda “XV asrning birinchi yarmida o‘zbek she’riyati” nomli fundamental tadqiqotida Haydar Xorazmiy asaridagi ayrim hikoyalarni, Nizomiy «Maxzan ul-asror»i va Alisher

Navoiyning «Haydar ul-abror»idagi ba’zi bir hikoyalar bilan qiyoslab, Haydar asari Nizomiyning «Maxzan ul-asror»iga javob tarzida yozilganligini uqtiradi.

Filologiya fanlari doktori A.Abdug‘afurov Navoiyga qadar o‘zbek satirasida yaratilgan eng yaxshi namunalardan biri sifatida Haydar Xorazmiy «Maxzan ul-asror»dagi ayrim hikoyalar ustida tadqiqotlar olib boradi. Xususan, asardan olingan bo‘z to‘quvchi kampir va bazzoz haqidagi hikoyatini har tomonlama tahlil qiladi. «Maxzan ul-asror»ini tarjima asar sifatida baholaydi. Yirik adabiyotshunos, filologiya fanlari doktor, akademik Botirxon Valixo‘jaev o‘zining bir qancha asarlarida, xususan, «O‘zbek epik poeziyası tarixidan» (1974), «O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi» (1993), «Malik ul-kalom Mavlono Lutfiy» (1999) kabi asarlarida Haydar Xorazmiy hayoti va ijodiga oid diqqatga sazovor fikrlar, mulohazalarni bildirganlar. Olim asar xususida shunday yozadi: «Haydar Xorazmiyning mazkur asari falsafiy-axloqiy doston bo‘lib, u Nizomiy G‘anjaviyning shu nomdagι asaridan ijodiy ilhomlarish natijasida maydonga kelgan. Shu jihatdan qaraganda u adabiy- tanqidiy qarashlarni ifoda etuvchi maxsus asar sifatida qaralmaydi. Ammo unda muallif badiiy ijodning ayrim masalalariga doir mulohazalarini ham o‘rni bilan bayon etganki, ularni ko‘zdan kechirish foydalidir»[1,67]. Zero ushbu qarashlarda Haydar Xorazmiyning she’r va shoirlik haqidagi qarashlari o‘z aksini topgan. Bu esa qaysidir ma’noda shoirni o‘z ijodiga nisbatan ham tanqidiy munosabatda bo‘lganidan, asar badiiyatini Nizomiy dostoni darajasida saqlab qolishga uringanidan dalolat beradi. U «Maxzan ul-asror»ning bir qancha o‘rnida keltirgan tanqidiy fikrlari bugungi kun adabiyotshunosligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1974-yilda adabiyotshunos Nizom Abdullayev «Maxzan ul-asror» bo‘yicha amalga oshirgan maxsus tadqiqotlari asosida asarning qiyosiy matnini yaratadi va Nizomiy dostoni bilan chog‘ishtirib tahlil etadi, «Haydar Xorazmiy va uning «Maxzan ul-asror»i mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Ushbu ilmiy ish ma’lum ma’noda shu vaqtgacha yaratilgan ko‘plab tadqiqotlarni o‘zida mujassamlashtirgan holda tanqidiy matnning yaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Zero, bunga qadar mavjud ishlarning ko‘plami va dolzarbligiga qaramay, «Haydar Xorazmiyning hayot yo‘li, ijodi va «Maxzan ul-asror» dostoni bo‘yicha ko‘plab savollar hamon javobsiz qolmoqda edi»[2,15].

Biroq o‘tgan vaqt davomida Haydar Xorazmiy ijodi bo‘yicha ko‘plab yangi fikrlar, topilmalar, qarashlar yuzaga keldiki, bu o‘z navbatida mavzuga bo‘lgan qiziqishni yana-da ortishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu malakaviy-bitiruv ishida «Maxzan ul-asror» dostonining o‘zbek adabiyotidagi shu kabi dostonlar, xususan, Navoiy va Xoja dostonlari bilan mushtarak jihatlariga alohida urg‘u beriladi.

Alisher Navoiyga qadar turkiy adabiyotda xamsanavislik an'anasining shakllanishi uchun zamin hozirlashda ishtirok etgan shoirlardan yana biri Sayid Qosimiydir. Sayyid Qosimiy adabiy merosining Hindistonning Rampur shahrida saqlanadigan yagona qo'lyozmasini adabiyotshunos olim B.Qosimxonov matnshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan monografik planda tadqiq etdi. Olim Sayyid Qosimiy adabiy merosi bo'yicha ancha izlanishlar olib bordi. "Gulshani roz" dostonining Toshkentda saqlanadigan va yanglish tarzda Navoiyga nisbat berilgan nusxasini aniqlab Rampur nusxasi bilan qiyosan tadqiq etdi. Tadqiqotning ilk natijalarini "Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari" nomli monografiyasida (1987) e'lon qildi[3,36]. Olim 1991-yilda "Sayyid Qosimiy va uning adabiy-didaktik dostonlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi[4,185]. Dissertatsiyada Sayyid Qosimiy masnaviyatlari qo'lyozmasi hamda ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga doir atroflicha fikr-mulohaza yuritilgan. Xususan, "Majma' ul-axbor" dostoni haqida tahliliy fikrlar ko'p.

Xamsanavislik ananasini yuksak darajaga ko'targan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy masnaviyatlari mamlakatimiz va xorijda eng ko'p nusxalarda ko'chirilgan, nashr etilgan va sharhlangan, mutolaa qilingan va qilinayotgan asarlar sirasiga kiradi.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni "Xamsa"ning tarkibiy qismi sifatida hamda alohida asar sifatida bir qator o'zbek, rus hamda boshqa xorijiy navoiyshunos, sharqshunos olimlar tomonidan o'r ganilgan. S.Ayniy, A.Fitrat, Y.E.Bertels, P.Shamsiyev, A.Hayitmetov, B.Valixo'jaev, T.Jalolov, A.Qayumov, M.Muhiddinov, A.Erkinov, D.Salohiy, A.Xidirnazarov kabi olimlarning bu boradagi xizmatlari katta.

Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosini ilk marotaba monografik planda tadqiq etgan rus olimi E.E.Bertelsning "Nizomiy", [5,18] "Navoiy" [6,89] monografiyalarida xamsalarning ilk dostonlari sharhlanadi, ularning muxtasar tavsifi beriladi. Olim Navoiyning ayrim ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlarini sharhlar ekan, ularni boshqa manbalar bilan ham solishtiradi.

Akad. A.P.Qayumovning 1976-yilda nashr ettirilgan «Hayrat ul-abror» talqini" monografiyasida ham doston atroflicha tahlil qilingan. Unda doston tarkibidagi boblar sharhlanar ekan, ularning eng muhim g'oyaviy va badiiy xususiyatlari yoritilgan. Biroq bu tadqiqotda Alisher Navoiy asaridagi boblarni Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy asarlari bilan qiyoslash holati kuzatilmaydi.

Navoiyshunos olimlardan S.Xidirnazarov o'zining "Hayrat ul-abror" dostonining qiyosiy arxitektonikasi" mavzusidagi 1991-yilda Samarqandda himoya etilgan nomzodlik dissertatsiyasida Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy asarlari bilan chog'ishtirma o'r ganilgan (Dissertatsiya matni bilan tanishish imkoniyati bo'limganligi uchun,

bitiruv ishida rus tilida yozilgan avtoreferatdan foydalanildi)[7,45]. Unda dostonlarning nomlanishidan tortib, boblar mundarijasi, maqolot va hikoyatlar mazmuniga qadar qiyoslanadi[7,10].

Filologiya fanlari doktori professor M.Muhiddinovning "Xamsa"larning birinchi dostonlarida Komil inson konsepsiysi" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyalari hamda "Komil inson – adabiyot ideali" nomli monografiyalari[10,145] alohida ahamiyatga molik bo‘lib, unda Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy qalamiga mansub dostonlar "Komil Inson" konsepsiysi nuqtai zaridan ilk bora qiyosiy planda tadqiq etiladi. Ustoz olim dostonlarning muqaddima boblarini, maqolot va hikoyatlarini chog‘ishtirish asnosida, Navoiy dostonining o‘ziga xos xususiyatlari haqida muhim nazariy xulosalarni ham ilgari suradilar.

Shu yo‘nalishdagi o‘ziga xos tadqiqotlardan biri adabiyotshunos U.Jo‘raqulovning "Ayla basirat ko‘zi birla nazar" nomli ilmiy maqolasidir"[8,56].

"Hayrat ul-abror" dostonining matni va nashrlari haqida yaratilgan bir qator tadqiqotlarda ham yuqorida tilga olingan boblar bilan bog‘liq fikrlar mavjud. Jumladan, O.Jo‘rabyevning "Navoiy na’tlarining matni va nashriga doir ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida)" nomli maqolasi[9,58], S.Tohirovning "Alisher Navoiy «Xamsa»si arxitektonikasiga doir ayrim mulohazalar"[10,45], "Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni nashrlaridagi ayrim muammolar xususida"[11,89] nomli ilmiy ishlarda mavzuga oid e’tiborli fikrlar mavjud. Olim «Hayrat ul-abror» dostonidagi boblar mazmuni hamda kompozitsiyasi tahlili asosida quyidagi xulosalarni bildiradi:

1. «Hayrat ul-abror» dostonidagi dastlabki boblar faqat shu dostonning emas, umuman «Xamsa»ning kirish qismi hisoblanadi.

2. Keyingi dostonlar alohida asar emas, «Xamsa»ning davomi ekanligi ularning «Bismillohir rahmonir-rahim» oyati (bu o‘rinda oyatning aynan shakligina emas, mazmuni ham nazarda tutilmoqda) bilan boshlanmasligida ham ko‘rinadi.

3. «Saddi Iskandariy» dostonining oxirgi 89-bobi faqat shu dostonning xotimasi emas, yaxlit tarzdagi «Xamsa»ning itmomi, «...bu maxozin tilismotini istehkom bila itmomg‘a etkurmakning tahriri» haqidagi bobdir.

Ushbu jumladagi «maxozin» (xazinalar, ya’ni besh xazina) so‘zi mazkur fikrni tasdiqlaydi. Bunda Navoiy «Xamsa»ni beshta tilsimlangan xazinadan iborat ko‘rg‘on - istehkom deb atamoqda. Aynan istehkom (devor, qoliplovchi vosita) vazifasini mazkur oxirgi bob bajargan.

Alisher Navoiydan keyin Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoni yo‘nalishida ijod etilgan yagona asar Xojaning "Maqsad ul-atvor" dostonidir. Xojaning hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar asosan uning o‘z o‘g‘li Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ul-ahbob» asarida mavjud. Xoja asarlaridan namunalar o‘zbek adabiyoti tarixidan

tuzilgan hamma xrestomatiyalarga kiritilgan. 1962-yili uning «Miftoh ul-adl» va «Gulzor» to‘plamlaridan namunalar V.Zohidov va S.G‘anieva tomonidan Toshkentda nashr ettirildi. Xoja ijodini o‘rganishda B.Valixo‘jaev, N.M.Mallaev, A.Ibrohimov, M.Mirzaahmedova, I.Bekjon kabi olimlarning xizmatlari bor. Bu borada, ayniqsa M.Mirzaahmedovaning “Xoja” monografiyasi alohida ahamiyatga ega. Biroq mazkur tadqiqotda «Maqsad ul-atvor» dostoni tahlilga tortilmagan.

«Maqsad ul-atvor» dostonining hozirda Rossiya davlati Sankt-Peterburg shahrida saqlanadigan ikki qo‘lyozma nusxasini topib undan parchalar nashr ettirgan, tanqidiy matnini tuzgan olim Sankt-Peterburglik o‘zbek adabiyotshunosи A.Tohirjonovdir. Doston parchalari 1982-yilda nashr bo‘lgan «Asrlar nidosi» to‘plami tarkibida e’lon qilindi. Tadqiqotlarda aytilishicha, Xoja asarlarining qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Aburayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar bo‘limida ham saqlanar ekan.

“Hayrat ul-abror” va “Maqsad ul-atvor” dostonlarining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan birgina ilmiy maqola 1981-yilda chop etilgan “Navoiy va ijod saboqlari” to‘plami tarkibidagi M.Mirzaahmedovaning “Navoiyning “Hayratul-abror” va Xojaning “Maqsadul-atvor” asarlari” nomli maqolasidir. Unda tilga olingan ikki doston kompozitsiyasi hamda g‘oyaviy-badiiy xususiyatlaridagi bir qator mushtarak jihatlar qayd etiladi. Olima, xususan, yozadi: “Bu ikki dostondagi zikr etilgan analogik bob va syujetlarni qiyoslab o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ular har ikki muallif qalamida ham o‘zining original talqinini topgan” [28. 85].

B.Valixo‘jayev va Q.Tohirovning hammuallifligida 2002-yilda Samarqandda nashr ettirilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi” o‘quv qo‘llanmasida ham “Maqsad ul-atvor” dostoni tahlili asnosida uning “Hayrat ul-abror” bilan mushtarak jihatlari haqida ham ayrim muhim fikr-mulohazalar berilgan.

**XULOSA.** Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni va shu mavzudagi asarlarni ilmiy tadqiq etish bo‘yicha mamlakatimiz va undan tashqaridagi sharqshunoslik, navoiyshunoslik markazlarida bir qator e’tiborli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, bizning bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi bo‘lgan “Hayrat ul-abror” va “Maqsad ul-atvor” dostonlarining qiyosiy-tipologik tahlili va tadqiqiga bag‘ishlangan ayrim tadqiqot va izlanishlar ham mavjud. Biroq ular salmog‘i va qamroviga ko‘ra masalaning butun mohiyatini yoritib bera olmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Valixo‘jayev B. O‘zbek abdiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston: 1993. –B 198.
2. Abdullayev H. Haydar Xarezmi i ego «Maxzn al-asrar». Автореферат dissertatsii kond. nauk. - T., 1974.
3. Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. –Toshkent: Fan, 1987.
4. Sayyid Kasimi i ego literaturno-didakticheskiye poem. Автореферат dissertatsii kond. nauk. - T., 1991.
5. Bertels Y.E. Nizami // Izbrannkiye trudi. Nizami i Fuzuli. – M.: IVL, 1962.
6. Bertels Y.E. Navoiy (Rus tilidan I.Mirzayev tarjimasi). – T.: Tafakkur qanoti, 2015.
7. Xidirnazarov S. Poema “Hayrat al-abror” (“Smyatenie pravednik”) Alishera Navoi. Problemi tipologii i poeticheskoy arxitektoniki. Автореферат dissertatsii kond. nauk. - T., 1990.
8. Muhiddinov M.Q. Komil inson – adabiyot ideali. –Toshkent: Fan, 2005.
9. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: Gafur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. –B 226.
10. Jo‘raboyev O. Navoiy na’tlarining matni va nashriga doir (“Hayrat ul-abror” dostoni misolida) // Alisher Navoiy “Xamsa”si va uninig Sharq adabiyoti taraqqiyotidagi ulkan mavqeい (Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDU nashri, 2015. –B 211.
11. Tohirov S. Alisher Navoiy «Xamsa»si arxitektonikasiga doir ayrim mulohazalar // Nurli yo’llar (Ilmiy maqolalar to‘plami). – Samarqand: SamDU nashri, 2008. –B 155.
12. Tohirov S. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni nashrlaridagi ayrim muammolar xususida // BuxDU Ilmiy axboroti. 2013-yil, № 2, –B 138.